



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARNI BOSHQARISHNING MA'NAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Oripov Elyor Shavkatovich

QDU Milliy g'oya va huquq kafedrası mudiri

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Murodov Asilbek Xursanbek o'g'li

Qo'qon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv, iqlim o'zgarishi va ekologik inqirozlar kuchaygan sharoitda transchegaraviy gidroresurlardan oqilona hamda barqaror foydalanishning ma'naviy-huquqiy asoslari keng qamrovli tahlil qilingan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslarini samarali boshqarishning xalqaro huquqiy mexanizmlari, davlatlararo suv diplomatiyasi strategiyalari hamda o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-ekologik qadriyatlari o'zaro uyg'unlikda tadqiq etilgan. Shuningdek, jamiyatda ekologik ma'naviyatni yuksaltirish, oila va mahallada suvdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy o'rni yoritib berilgan. Tadqiqot natijasida transchegaraviy suv muammolarini hal etishda faqatgina huquqiy normalar etarli emasligi, ularni milliy va umuminsoniy ma'naviy omillar bilan mustahkamlash zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: transchegaraviy gidroresurslar, suv diplomatiyasi, ekologik ma'naviyat, huquqiy mexanizmlar, barqaror taraqqiyot, milliy qadriyatlar, xotin-qizlar ekologik madaniyati, innovatsion yashil tadbirkorlik.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются духовно-правовые основы рационального и устойчивого использования трансграничных гидроресурсов в условиях глобализации, изменения климата и усиления экологического кризиса. Взаимосвязано исследуются международно-правовые механизмы эффективного управления водными ресурсами в Центральноазиатском регионе, стратегии межгосударственной водной дипломатии, а также многовековые духовно-экологические ценности узбекского народа. Также освещается социально-правовая роль женщин в повышении экологической духовности общества, формировании культуры водопользования в семье и махалле. В результате исследования научно обосновано, что правовых норм самих по себе недостаточно для решения трансграничных водных проблем, и необходимо укреплять их национальными и общечеловеческими духовными факторами.

Ключевые слова: трансграничные гидроресурсы, водная дипломатия, экологическая духовность, правовые механизмы, устойчивое развитие, национальные ценности, экологическая культура женщин, инновационное зеленое предпринимательство.

Abstract: This article comprehensively analyzes the spiritual and legal foundations of rational and sustainable use of transboundary hydro-resources under the

conditions of globalization, climate change, and increasing ecological crises. The international legal mechanisms of effective water resources management in the Central Asian region, interstate water diplomacy strategies, and the centuries-old spiritual-ecological values of the Uzbek people are studied in harmony. It also highlights the socio-legal role of women in raising the ecological spirituality of society and forming a culture of water use in the family and neighborhood. As a result of the research, it is scientifically justified that legal norms alone are not sufficient to solve transboundary water problems, and it is necessary to reinforce them with national and universal spiritual factors.

Key words: transboundary hydro-resources, water diplomacy, ecological spirituality, legal mechanisms, sustainable development, national values, ecological culture of women, innovative green entrepreneurship.

Kirish.

XVI-asrning choragiga kelib, global miqyosda kechayotgan iqlim o'zgarishlari, dunyo muzliklarining shiddat bilan erishi va suv resurslarining keskin kamayishi insoniyat sivilizatsiyasi oldiga jiddiy ekologik tahdidlarni qo'yimoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi transformatsiya bosqichida bo'lgan, transchegaraviy daryolar tizimiga (Amudaryo va Sirdaryo) to'liq qaram bo'lgan mintaqalarda suv resurslaridan adolatli va barqaror foydalanish masalasi faqatgina iqtisodiy yoki texnik muammo bo'lmay, balki xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlovchi bosh omildir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son hamda 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli farmon va qarorlarida ilm-fanni davr talablari asosida rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida aniq vazifalar belgilangan. Bugungi kunda transchegaraviy daryolardan foydalanish borasidagi nizolarning oldini olish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishda xalqaro huquq normalari bilan bir qatorda, shu mintaqada yashovchi xalqlarning ko'p asrlik ekologik ma'naviyati, qadriyatlari va tabiatga bo'lgan falsafiy munosabatini qayta tiklash hamda ulardan huquq ijodkorligida unumli foydalanish dolzarb ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — transchegaraviy gidroresurslarni boshqarish tizimini xalqaro huquq prinsiplari hamda Sharq xalqlari qadriyatlaridagi ekologik ma'naviyat kodekslari asosida tahlil qilish, jamiyatda suv iste'moli madaniyatini yuksaltirishda huquqiy taqiqlar va ma'naviy-axloqiy mezonlarning o'zaro uyg'unlashuv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot jarayonida BMTning transchegaraviy suv oqimlari bo'yicha xalqaro konvensiyalari, O'zbekiston Respublikasining Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy)ning tabiat, suv va ekologik muvozanat haqidagi qarashlari material sifatida olindi. Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, sotsiologik kuzatuv hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan keng foydalanildi. Ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyatda va oilada ekologik madaniyat elementlarini shakllantirish hamda "yashil" tadbirkorlik loyihalarini tatbiq etish orqali suvni tejashga qo'shayotgan hissasini baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Natijalar. O'tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko'rsatdiki, transchegaraviy gidroresurlarni muvaffaqiyatli boshqarish bevosita "suv diplomatiyasi" mexanizmlarining samaradorligiga bog'liq. BMT doirasidagi huquqiy hujjatlar umumiy normalarni belgilab bersa-da, har bir davlatning ichki resurslaridan foydalanish samaradorligi fuqarolarning ekologik ma'naviyati darajasi bilan o'lchanadi.

Sharq xalqlari, xususan, markaziy osiyoliklar ongida suv qadimdan muqaddas, hayot manbai va ma'naviy poklik ramzi bo'lib kelgan. Zardushtiylikning "Avesto" kitobidan tortib, islom huquqi (fiqh) manbalarigacha suvni ifloslantirish, uni isrof qilish eng og'ir gunoh va ma'naviy tubanlik sifatida qoralangan. Xalqimiz orasidagi "Suv keltirgan elda aziz", "Suvga tupurma — ko'r bo'lasan", "Suvning ham so'rog'i bor" kabi maqol va naqlar shunchaki og'izdan-og'izga o'tgan iboralar emas, balki jamiyatning yozilmagan ekologik-huquqiy qonunlaridir.

Tadqiqot doirasida oilada va mahallada suvni tejash ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy bo'g'in — xotin-qizlar ekanligi sotsiologik jihatdan tasdiqlandi. Ayollarning huquqiy va ekologik bilimlarini oshirish, ularni "yashil" tadbirkorlik hamda tomorqa xo'jaliklarida tomchilatib sug'orish kabi innovatsion texnologiyalarga yo'naltirish transchegaraviy daryolardan olinadigan suv sarfini ichki imkoniyatlar hisobiga 20-30% gacha kamaytirish imkonini beradi. Huquqiy normalar va iqtisodiy choralar ma'naviy mas'uliyat bilan sintez qilingandagina barqaror ekologik muhitni kafolatlaydi.

Xulosa.

Transchegaraviy gidroresurlardan barqaror foydalanishning siyosiy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy va milliy qadriyatlar poydevor vazifasini o'tashi zarur. Globallashuv va mintaqaviy suv taqchilligi sharoitida millatni ekologik inqirozlardan himoya qilish maqsadida quyidagi strategik choralar taklif etiladi:

1. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi suv diplomatiyasini faqatgina iqtisodiy kvotalar asosida emas, balki mintaqa xalqlarining umumiy tarixiy-ma'naviy merosi va ekologik etika tamoyillari asosida rivojlantirish;
2. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologik ma'naviyat" va "Suv huquqi" yo'nalishidagi darslarni tizimli joriy etish orqali yosh avlodda suvni muqaddas bilish tuyg'usini shakllantirish;
3. Xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish, xususan, qishloq joylarida ayollar tadbirkorligini "yashil iqtisodiyot" prinsiplari va suvni tejoychi texnologiyalar bilan integratsiya qilgan holda qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-son qarori.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Konvensiyasi (Helsinki, 1992-yil 17-mart).

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir, 2022. – 416 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
6. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 284 b.
7. Alixonov B. Transchegaraviy ekologik muammolar va barqaror taraqqiyot. – Toshkent: Sharq, 2012. – 198 b.
8. Nigmatov A.N. Ekologik huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 320 b.
9. Forobiy, Abu Nasr. Fozi odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
10. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. I tom. – Toshkent: Fan, 1968. – 480 b.
11. Muhamedjanov Sh. Suv diplomatiyasi va transchegaraviy hamkorlik asoslari. // Siyosiy va huquqiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2023. – №3. – B. 45-52.
12. Rahimov F.M. Ekologik ma'naviyat va milliy qadriyatlar uyg'unligi. – Farg'ona: Klasika, 2021. – 160 b.